XALQ DEPUTATLARI GULISTON SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2024 - yil 13 - fevral VI-90-21-9-130-K/24 Guliston shahar hokimligi

Guliston shahar mahalliy budjetining 2024-yil boshiga aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi budjet kodeksining 126-moddasiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Guliston shahar Kengashi **QAROR QILADI:**

1. Guliston shahar hokimi v.v.b G'.Botirovning shahar mahalliy budjetining daromadlarining 2024-yil erkin qoldiq manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan taklifi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Guliston shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari Xalq deputatlari Guliston shahar Kengashining qarorlari asosida yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin.

3. Shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari etib quyidagilar belgilansin:

- shahar budjetining yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag‘lari;

- shahar budjeti daromadlarining birinchi-uchinchi hisobot choraklari yakunlari bo‘yicha aniqlanadigan daromadlarni rejadan oshirib bajarilishidan;

- davlat aktivlarini xususiylashtirishdan shahar budjetiga tushgan mablag‘lardan;

- “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan shahar budjetiga tushgan mablag‘lari.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmoyishlarida, Hukumat qarorlari va bayonlarida belgilangan tadbirlarni bajarish maqsadida hamda shaharning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tadbirlariga shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish ilovaga muvofiq amalga oshirilsin.

5. Xalq deputatlari Guliston shahar Kengashi Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

- budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda budjet intizomiga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

6. Budjetdan mablag‘ ajratilgan tashkilot rahbarlariga shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning maqsadli va samarali sarflash vazifasi hamda sarflangan mablag‘lar to‘g‘risidagi hisobotlarni Xalq deputatlar Guliston shahar Kengashga taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

7. Qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘lar shahar hokimligi axborot xizmati (Sh.Yunusov)ga shaharning rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish vazifasi yuklatilsin.

8. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirishni o‘z zimmamda qoldiraman.

9. Qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga yuklansin.

Kengash raisi o'rinbosari **Xamrakulovich M. Sh.**

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2024-yil 13-fevraldagi
VI-90-21-9-130-K/24-son qaroriga
1-ilova

Guliston shahar mahalliy budjetining 2024-yil boshiga aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratilishi to‘g‘risida

ming.so‘mda

T/r	Ko‘rsatkichlar	Mablag‘ ajratilayotgan tashkilot nomi	Mablag‘ ajratish
X	**Shahar bo‘yicha**	**X**	**4 822 967,0**
1	O‘z.Resp.Prezidentining 13.04.2021 yildagi PQ-5072-sonli qaroriga asosan 30% foizi miqdoida Jamoatchilik fikri asosida “Fuqarolar tashabbusi jag‘armasi”ga	Guliston shahar hokimligi	1 740 597,0
2	Yoshlar daftari jamg‘armasiga	Guliston shahar hokimligi	300 000,0
3	Ayollar daftari jamg‘armasiga	Guliston shahar hokimligi	30 000,0
4	Guliston shaharlararo qo‘riqlash bo‘limining shahar hokimligi binosini qo‘riqlash xizmati bilan bog‘liq vujudga kelgan kreditor qarzdorlikni qoplash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	Guliston shahar hokimligi	521 331,0
5	Shahar hokimligi binosining kommunal xizmatlar bilan bog‘liq vujudga kelgan kreditor qarzdorliklarni bartaraf etish maqsadida	Guliston shahar hokimligi	300 000,0
6	Yetim bolalar va ota-ona qaromog‘idan maxrum bo‘lgan bolalarga uy-joy xarid qilish, ta’mirlash va jixozlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	Guliston shahar hokimligi	160 000,0
7	Toshkent davlat transport universiteti bilan birgalikda Guliston shahrining transport va yo‘l- transport infratuzilmasini rivojlantirish bosh rejasini ishlab chiqish bilan bog‘liq xarajatlarga	Guliston shahar hokimligi	571 200,0
8	“Amfiteatr” binosini ta’mirlash bilan bog‘liq vujudga kelgan kreditor qarzdorlikni qoplash maqsadida	Madaniyat bo‘limiga	86 839,0
9	“Keksalar uchun turizm oyligi” doirasida yurtimizning muqaddas joylariga va ziyoratgoxlariga sayohat qilish bilan bog‘liq xarajatlar uchun	Guliston shahar hokimligi	25 000,0
10	“Nurafshon” mahalla fuqarolar yig‘ini binosi qurilishidan vujudga kelgan kreditor qarzdorlikni qoplash maqsadida	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limiga	28 000,0

11	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qonliko‘l tumanidagi barcha ovul va qishloqlardagi aholi turar joylari hamda ichki yo‘llar holati bo‘yicha o‘tkazilgan xatlovda og‘ir turmush sharoitidagi oilalarga tegishli uy-joylarning tom qismini ta’mirlash (yopish) hamda yashash uchun yaroqsiz va avariya holatidagi uy-joylarni yangidan qurish maqsadida	Yagona buyurtmachi xizmati Davlat Unitar Korxonasiga	400 000,0
12	Shahar hokimligining xizmat avtotrnasport vositlarini ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	Guliston shahar hokimligi	50 000,0
13	Guliston shahariga mavsumiy gullar, ko‘chatlar va bo‘yoq sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun	Shahar obodonlashtirish boshqarmsiga	300 000,0
14	Shahar markaziy ko‘chalariga banner sotib olish va o‘rnatish bilan bog‘liq xarajatlar uchun	Guliston shahar hokimligi	70 000,0
15	“Alpomish” sport majmuasi negizida koronavirus infeksiyasi bilan kassalangan bemorlarni davolashga qaratilgan tibbiyot majmuasida kislorod balonlarini portlashi natijasida talofatlarni qoplash maqsadida “Golden Windows” xususiy korxonasi foydasiga Guliston tumanlararo Iqtsidiy sudining 2023 yil 6 noyabrdagi 4-1201-2304/2240-sonli ijro varaqasini o‘z vaqtida ta’minlash maqsadida	Guliston shahar hokimligi	200 000,0
16	Guliston shahar Soliq inspeksiyasining moddiy texnik bazasini rivojlantirish bilan bog‘liq xarajatlar uchun	Shahar soliq inspeksiyasiga	40 000,0